XALQ DEPUTATLARI QIBRAY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-109-10-139-K/25 Qibray tumani

Qibray tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son qonuniga va Xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-26-162-10-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Qibray tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 6-noyabrdagi 2-4-1161-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 26-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi “Toshkent viloyatining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Qibray tumani mahalliy byudjetining 2026-yil uchun daromadlar rejasi – **136 409 990 ming so‘m** va xarajatlari – **136 409 990 ming so‘m** etib ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek, tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **622 965,0ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Qibray tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga;**

Qibray tumani mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga**;

Qibray tumani byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 758 098 ming so‘m** miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Botirov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(I.Xolmurodov)**, Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi **(Y.Artikbayev)** bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsinlar.

6. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanilishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriluvchi tashkilotlarning kommunal xizmatlardan ajratilgan limitlar doirasida foydalanishi, kommunal xizmatlardan qarzdorlik vujudga kelgan taqdirda mazkur qarzdorliklar byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan bartaraf qilinishi, qarzdorliklar o‘z vaqtida bartaraf etilmagan hollarda byudjet tashkilotlari rahbarlariga va mas’ul xodimlariga qonunchilikda belgilangan tartibda tegishli choralar ko’rilishi ta’minlansin.

8. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar **4-ilovaga;**

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar haqida ma’lumot **5-ilovaga;**

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari **6-ilovaga;**

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar **7-ilovaga;**

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarlar jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **8-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, 2026-yilda soliq yukining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i summasi 2025-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 barobaridan oshmasligi lozimligi ko‘rsatib o‘tilsin.

9. Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi **(Y.Artikbayev)**:

8-ilovada qo‘llanilgan koeffitsiyentlar va soliq stavkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilarga 5 kunlik muddatda yetkazish;

byudjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oyning 5-sanasiga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

10. Qibray tumanida 2026-yil uchun mol-mulkini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun 1 m^2 uchun belgilangan ijara to‘lovining:

eng kam stavkalari **9-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

11. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(I.Xolmurodov)**, Davlat soliq inspeksiyasi tuman bo‘limi **(Y.Artikbayev)** belgilangan hududlarda jismoniy shaxslar, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlarini to‘liq hajmda tuman byudjetiga o‘tkazish choralarini ko‘rsinlar.

12. Tuman hokimligi axborot xizmati **(T.Tashxodjayev)**, “Qibray sadosi” gazetasi**(A.Qaxxorov)** mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va tuman gazetasida yoritilishini ta’minlasinlar.

13. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Qibray tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi **(F.Miraxmedov)** zimmasiga yuklatilsin.

14. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **RASHIDOV MUZAFFAR ABROROVICH**

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Qibray tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

ming.so‘mda

№	Daromad turlari	Qibray tumani
	JAMI	**136 409 990**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	12 230 820
2	Foyda solig‘i	4 396 200
3	Aylanmadan olinadigan soliq	1 169 750
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 285 580
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	7 863 000
	Aksiz solig‘i jami	3 169 050
	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	*0*
	Pivo	*0*
6	*Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi istemolchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i*	*3 169 050*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 134 560
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	27 122 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 955 180
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	38 241 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	5 456 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	16 541 200
	shundan: Qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘yicha suv solig‘i	7 962 000
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-3 184 800
13	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	1 229 750
15	Yig‘imlar	1 228 650
16	Jarimalar	1 048 250

17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	339 000

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Qibray tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming.so‘mda

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Qibray tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**136 409 990**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*34 797 460*
	shundan:	
	“Mening maktabim”	*2 595 600*
2	Madaniyat bo‘limi	*12 547 301*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*5 193 026*
4	Sport bo‘limi	*4 336 198*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 420 169*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*2 807 340*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*2 612 947*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 237 348*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*0*
10	Hokimiyat	*45 378 907*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*0*
	Kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi	*0*
	Madaniyat bo‘limi	*0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*0*
	Invistitsiyalar, sonoat va savdo bo‘limi	*0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*0*
	Oil ava xotin-qizlar bo‘limi	*0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*25 145 044*
	“Mahalla byudjeti” jamg‘armasi mablag‘lari	*3 041 506*
	Zahira jamg‘armasi	*1 758 098*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*705 676*
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*705 676*
12	Hokimiyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	24 373 618
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori foiz (%)da

Hudud nomi			**Qibray tumani**
QQS	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	2%
Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Foyda solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	3%
alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
pivo	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	5%
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	16%
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	11%
Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman byudjetiga	MRI	100%
		DSB	100%
Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	Tuman byudjetiga	MRI	0%
		DSB	0%
Aylanmadan soliq	Tuman byudjetiga		5%
Davlat boji	Tuman byudjetiga		5%
Jarima	Tuman byudjetiga		5%
Yig‘imlar	Tuman byudjetiga		5%

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Faoliyat turi	Suv manbai	Koefitsient
1	Qibray tumani	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTlar	Yer usti	1,20
			Yer osti	1,25
2	Qibray tumani	Sanoat korxonalari	Yer usti	1,25
			Yer osti	1,25
3	Qibray tumani	Avtotransport vositalarini yuvish	Yer usti	1,20
			Yer osti	1,25
4	Qibray tumani	Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	Yer usti	1,25
			Yer osti	1,25

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat‘iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Tuman nomi	Foydali qazilma turi	Koeffitsient
1	Qibray tumani	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,30
2	Qibray tumani	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,30
3	Qibray tumani	Marmar	1,30
4	Qibray tumani	Granitlar	1,30
5	Qibray tumani	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,30
6	Qibray tumani	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,35
7	Qibray tumani	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)	1,34

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
6-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan (minimal qiymat) mutloq miqdorlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent
1	Qibray tumani	1,00

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Qibray tumani	1,10	1,00

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
8-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Mahalla nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish meyoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi	Koeffitsient	Er solig‘i stavkasi
		(0,5 dan 2 gacha)	2026-yil uchun	(0,5 dan 2 gacha)	2026-yil uchun
			(so‘mda)		(so‘mda)
1	Madaniyat MFY	1,05	6 816,24	1,05	591,822
2	Iftixor MFY	1,23	7 984,74	1,23	693,275
3	Qipchoq MFY	1,04	6 751,32	1,04	586,19
4	Ko‘prikboshi MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
5	Qurilish MFY	1,06	6 881,15	1,06	597,454
6	May MFY	1,02	6 621,48	1,02	574,915
7	Nurafshon MFY	1,15	7 465,40	1,15	648,186
8	Mehnat MFY	1,09	7 075,90	1,04	586,19
9	Mirzo Ulug‘bek MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
10	Mustaqillik MFY	1,05	6 816,24	1,05	591,822
11	Navbahor MFY	1,08	7 010,98	1,07	603,097
12	Navro‘z MFY	1,27	8 244,40	1,25	704,55
13	Istiqbol MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
14	Ma‘rifat MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004

15	Ilg‘or MFY	1,04	6 751,32	1,04	586,19
16	Alisher Navoiy MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
17	Zebuniso MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
18	Baytqo‘rgon MFY	1,09	7 075,90	1,21	682
19	Ahillik MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
20	Birlik MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
21	Abdurahmon Jomiy MFY	1,04	6 751,32	1,04	586,19
22	Boyjigit MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
23	Botanika MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
24	Bunyodkor MFY	1,25	8 114,57	1,25	704,55
25	Bo‘ston MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
26	Gafur Gulom MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
27	Guliston MFY	1,21	7 854,90	1,21	682
28	Darxon MFY	1,09	7 075,90	1,09	614,372
29	Do‘rmon MFY	1,23	7 984,74	1,23	693,275
30	Yonariq MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
31	Zaxiriddin Muxammad Bobur MFY	1,29	8 374,23	1,29	727,1
32	Obod MFY	1,09	7 075,90	1,09	614,372
33	Beruniy MFY	1,15	7 465,40	1,15	648,186
34	Oqoltin MFY	1,06	6 881,15	1,06	597,454
35	Oybek MFY	1,21	7 854,90	1,21	682
36	Yuqoriyuz MFY	1,21	7 854,90	1,21	682
37	Yangihayot MFY	1,07	6 946,07	1,07	603,097
38	Yangiobod MFY	1,23	7 984,74	1,23	693,275
39	Yangiyo‘l MFY	1,1	7 108,35	1,1	617,188
40	Yangi avlod MFY	1,06	6 848,69	1,06	594,638
41	Sharq MFY	1,05	6 783,78	1,05	589,006
42	Shalola MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
43	Chinobod MFY	1,07	6 913,61	1,07	600,281
44	Xo‘jaqo‘rg‘on MFY	1,05	6 783,78	1,05	589,006
45	Hosildor MFY	1,06	6 848,69	1,06	594,638
46	Yangi Arg‘in MFY	1,21	7 854,90	1,21	682
47	Xaydarobod MFY	1,21	7 854,90	1,21	682
48	Olmazor MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
49	Parvoz MFY	1,22	7 919,81	1,22	687,643

50	Po‘lat qadam MFY	1,07	6 946,07	1,07	603,097
51	Sohibkor MFY	1,19	7 725,07	1,19	670,736
52	Tinchlik MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
53	Turkiston MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
54	Taraqqiy MFY	1,09	7 075,90	1,09	614,372
55	Uzumzor MFY	1,08	7 010,98	1,08	608,729
56	Uymovut MFY	1,07	6 946,07	1,07	603,097
57	O‘nqo‘rg‘on MFY	1,24	8 056,14	1,24	698,918
58	O‘tkir MFY	1,09	7 075,90	1,09	614,372
59	Fayzobod MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004
60	Farovon MFY	1,1	7 140,82	1,1	620,004

Xalq deputatlari Qibray tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-10-139-K/25 -son
qaroriga
9-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha 2026-yilga belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Tuman nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda), ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish obyektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Qibray tumani	1,10	1,10	1,15	1,10	1,0